

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# №2

2026  
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari  
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX  
COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 334 sahifa.  
2026-yil, fevral*

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                     |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY<br>MODELLARI.....                                                                                   | 26 |
| Madaminov Bekzod Allayarovich                                                                                                                                       |    |
| “HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI .....                                                                                                 | 32 |
| Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li                                                                                                                                  |    |
| HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI<br>TALABLARNI SHAKLLANTIRISH .....                                                        | 37 |
| Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.                                                                                                            |    |
| СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА<br>У ДЕТЕЙ .....                                                                                   | 42 |
| Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли                                                                                                               |    |
| ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ<br>ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ<br>УЗБЕКИСТАН.....               | 48 |
| Бекзод Умматов                                                                                                                                                      |    |
| ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ:<br>СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ<br>ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА..... | 55 |
| Вахидов Азизжон Саиджонович                                                                                                                                         |    |
| SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH<br>STRATEGIYALARI .....                                                                     | 58 |
| Xalikulova Shirin Utkir qizi                                                                                                                                        |    |
| “ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV<br>HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI .....                                 | 62 |
| Xayitboyeva Laylo Oybekovna                                                                                                                                         |    |
| XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI<br>TAJIRIBASI .....                                                                         | 66 |
| Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich                                                                                                                                 |    |
| XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI<br>SHAKLLANTIRISH .....                                                                           | 72 |
| Xolikov Ravshan Anvar o’g’li                                                                                                                                        |    |
| PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH .....                                                                                             | 76 |
| Obidova Zilola Ikromjon qizi                                                                                                                                        |    |
| HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI<br>KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH .....                                               | 81 |
| Nomurodova Farangiz Lazizovna                                                                                                                                       |    |
| AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA<br>INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI<br>VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI .....     | 87 |
| Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich                                                                                                                                  |    |
| YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA<br>INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....                                            | 92 |
| Mirzatov Baxtiyor Toxirovich                                                                                                                                        |    |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI<br>VA TAMOIYILLARI .....                                                                  | 96 |
| Mavrulov Ravshan Nematjonovich                                                                                                                                      |    |



|                                                                                                                                                                           |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ .....                                                                                                                | 101 |
| <b>Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи</b>                                                                                                                                  |     |
| DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                                            | 107 |
| <b>Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna</b>                                                                                                                                      |     |
| XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                         | 111 |
| <b>Axmedov Sanjar Temur o'g'li</b>                                                                                                                                        |     |
| RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI .....                                         | 117 |
| <b>Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li</b>                                                                                                                                  |     |
| GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI .....                                                                 | 123 |
| <b>Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li</b>                                                                                                       |     |
| AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS .....                                                                 | 128 |
| <b>Utkirova Maftuna Murodjon qizi</b>                                                                                                                                     |     |
| O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI .....                                   | 134 |
| <b>Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li</b>                                                                                                                                   |     |
| TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....                                                                            | 139 |
| <b>Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li</b>                                                                                                                                   |     |
| TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI .....                                    | 144 |
| <b>Qurbonov Jasurbek Pozilovich</b>                                                                                                                                       |     |
| OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN ..... | 150 |
| <b>Akramov Akbarjon Akmal ugli</b>                                                                                                                                        |     |
| QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI .....                                                                                            | 156 |
| <b>Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li</b>                                                                                                                                      |     |
| XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR .....                                                                      | 160 |
| <b>Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich</b>                                                                                                                                    |     |
| MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI .....                                                                                                    | 165 |
| <b>Yakubov Temur G'anibekovich</b>                                                                                                                                        |     |
| AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI .....                                                                                          | 169 |
| <b>Siroj Zarina Rustambekovna</b>                                                                                                                                         |     |
| AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL .....                                                                                      | 176 |
| <b>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</b>                                                                                                                                 |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....                                                | 181 |
| <b>Ziyodullayev Qahramon</b>                                                                                                                                              |     |
| ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ .....                                                                                                                | 185 |
| <b>Хамдамова Гавхар Абсаматовна</b>                                                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI .....                                              | 191 |
| <b>Mamatov Baxodir Quldoshovich</b>                                                                                                                                       |     |



|                                                                                                                                                            |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI<br>TAHLIL QILISH .....                                                                      | 197 |
| <i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>                                             |     |
| MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA<br>TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH .....                                  | 205 |
| <i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>                                                                                                                      |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING<br>RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH .....                                                              | 209 |
| <i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>                                                                                                                             |     |
| XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL<br>ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....                                            | 216 |
| <i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>                                                                                                                      |     |
| QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH<br>TIZIMI .....                                                                  | 221 |
| <i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>                                                                                                                          |     |
| BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI,<br>TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI .....                                             | 225 |
| <i>Rajabov Oybek Panjievich</i>                                                                                                                            |     |
| MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK<br>MODELASHTIRISH .....                                                        | 229 |
| <i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>                                                                                                                 |     |
| MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASSTER MODELINI JORIY ETISHNING<br>USTUVOR YO'NALISHLARI .....                                                    | 235 |
| <i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>                                                                                                                      |     |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSiya FAOLIYATINI BOSHQARISH .....                                                                                   | 240 |
| <i>Xatamov Nurbek Ochilidievich, Sharifi Abdul Fatah</i>                                                                                                   |     |
| MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI<br>YUZASIDAN TAKLIFLAR .....                                                            | 245 |
| <i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>                                                                                                                      |     |
| TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI<br>TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                      | 251 |
| <i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>                                                                                                              |     |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI<br>TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                 | 257 |
| <i>Karimov Shohruh Boydulla o'g'li</i>                                                                                                                     |     |
| "O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO<br>STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH .....                                 | 262 |
| <i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>                                                                                                                       |     |
| QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK<br>MODEL .....                                                                        | 266 |
| <i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich,<br/>Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>              |     |
| YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING<br>INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... | 272 |
| <i>Norboyev Sarvar Azodovich</i>                                                                                                                           |     |
| O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK<br>SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI .....                                           | 277 |
| <i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>                                                                                                                |     |
| ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH .....                                                                                     | 283 |
| <i>B. Beknazarov</i>                                                                                                                                       |     |



|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIYASI .....                                               | 288 |
| <b>Abduxalilova Laylo Tohtasinovna</b>                                                                                                        |     |
| ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ .....                                    | 294 |
| <b>Мегноров Алмардон Абдирахмонович</b>                                                                                                       |     |
| RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY .....                                               | 302 |
| <b>Nigmatova Malika</b>                                                                                                                       |     |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....                                                       | 307 |
| <b>Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich</b>                                                                                                      |     |
| BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI .....                                                                | 311 |
| <b>Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi</b>                                                                                                      |     |
| АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ ..... | 316 |
| <b>Киличева Ф.Б.</b>                                                                                                                          |     |
| MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....                                    | 320 |
| <b>Kushmanova Mahbuba</b>                                                                                                                     |     |
| GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI .....                                                                       | 324 |
| <b>Xamidov Xayriddin Faxritdinovich</b>                                                                                                       |     |
| DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....             | 329 |
| <b>Sharapov Farrux Shomuratovich</b>                                                                                                          |     |



# DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

**Sharapov Farrux Shomuratovich**

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining  
Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshligi o'rinbosari.

ORCID: [0009-0006-4122-8003](https://orcid.org/0009-0006-4122-8003)

E-mail: [fsharapov05@gmail.com](mailto:fsharapov05@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada Qashqadaryo viloyati misolida davlat aktivlarini xususiylashtirishning mintqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida xususiylashtirilgan korxonalarning moliyaviy samaradorligi, ish bilan ta'minlash darajasi hamda investitsion faollikka ta'siri o'rganilgan. Olingan natijalar xususiylashtirish jarayoni mintqaviy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishi, korxonalar samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Maqolada hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish hamda davlat aktivlarini boshqarish strategiyalarini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Davlat aktivlari, xususiylashtirish, mintqa iqtisodiy rivojlanishi, Qashqadaryo viloyati, rentabellik, investitsiya.

**Abstract.** This article analyzes the impact of privatization of public assets on regional economic development, using Qashqadaryo Region as a case study. The research examines the financial performance of privatized enterprises, employment levels, and their influence on investment activity. The findings indicate that privatization contributes to stimulating regional economic growth, enhancing efficiency, and improving competitiveness. The article provides practical recommendations for improving regional economic policy and optimizing public asset management strategies.

**Keywords:** Public assets, privatization, regional economic development, Qashqadaryo Region, profitability, investment.

**Аннотация.** В статье на примере Кашкадарьинская область анализируется влияние приватизации государственных активов на региональное экономическое развитие. В исследовании изучены финансовая эффективность приватизированных предприятий, уровень занятости и влияние на инвестиционную активность. Результаты показывают, что процесс приватизации способствует стимулированию регионального экономического роста, повышению эффективности и конкурентоспособности предприятий. В статье предложены практические рекомендации по совершенствованию региональной экономической политики и стратегий управления государственными активами.

**Ключевые слова:** Государственные активы, приватизация, региональное экономическое развитие, Кашкадарьинская область, рентабельность, инвестиции.

## KIRISH

Davlat aktivlarini xususiylashtirish — davlat mulkini samarali bozor mexanizmlari orqali iqtisodiyotni liberallashtirish, raqobatni kuchaytirish hamda xususiylashtirish sektor ulushini oshirish yo'li bilan iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan muhim siyosiy-iqtisodiy yo'nalishdir.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda davlat ishtirokini kamaytirish, iqtisodiyotni liberallashtirish va xususiylashtirishni rivojlantirish strategiyasi doirasida davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlari izchil davom ettirilmoqda. 2020-2025-yillar mobaynida Prezidentning bir qator farmon va qarorlari qabul qilinib, ularda

xususiylashtirish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xususiylashtiriladigan aktivlar ro'yxatini kengaytirish hamda ushbu jarayonda shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash masalalari belgilab berildi.

Jumladan, 2020-yil 27-oktabrda imzolangan "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va davlat aktivlarini xususiylashtirish bo'yicha choralar to'g'risida"gi farmon asosida qator davlat korxonalarini transformatsiya qilish hamda ularning ulushlarini bozor mexanizmlari orqali realizatsiya qilish vazifalari belgilandi. Bu esa davlat mulkini yanada samarali boshqarish va bozor tamoyillarini keng joriy etish yo'nalishidagi tizimli yondashuvni ifodalaydi.

Keyingi yillarda huquqiy bazani yanada takomillashtirish bo'yicha muhim yangilanishlar amalga oshirildi. Xususan, 2024-yilda davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risidagi yangi qonun qabul qilinib, uni 2030-yilgacha amalga oshirish strategiyasi belgilandi. Mazkur qonun xususiylashtirish jarayonlarini tartibli va shaffof mexanizmlar asosida olib borishni nazarda tutadi hamda elektron auksionlar, raqamli infratuzilma va raqobatbardosh savdo tizimlarini joriy etish orqali investorlarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, 2025-yil 21-apreldagi "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi hujjatga muvofiq 115 ta korxona aksiyalari, 659 ta ko'chmas mulk obyekti hamda 6100 gektar yer uchastkalari ommaviy savdolarga chiqarilishi belgilandi. Bundan tashqari, 2030-yilgacha davlat ishtirokidagi yangi korxonalarni tashkil etish bo'yicha moratoriy joriy etilib, davlat funksiyalariga mos kelmaydigan faoliyat turlarida yangi korxonalar tashkil etishni cheklash ko'zda tutildi.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti davlat aktivlariga bog'liq segmentlarga ega bo'lib, xususiylashtirish jarayonining hudud iqtisodiyotiga ta'siri samaradorlik, ish o'rinlari, investitsiya faolligi va raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan alohida tahlilni talab etadi.

Mazkur tadqiqotda davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri moliyaviy-statistik tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili hamda ekspert baholari asosida kompleks ravishda baholanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat aktivlarini xususiylashtirish va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri masalasi xalqaro hamda milliy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalish institutsional iqtisodiyot, korporativ boshqaruv, strategik menejment hamda davlat boshqaruvi nazariyalari kesishgan nuqtada shakllangan kompleks tadqiqot obyektidir.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasi doirasida davlat mulkini boshqarish samaradorligi institutlar sifati va barqarorligiga bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, Douglass North institutlarni "o'yin qoidalari" sifatida talqin qilib, iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli natijalari rasmiy va norasmiy institutlar samaradorligiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, mulkchilik huquqlarining aniqligi hamda boshqaruv mexanizmlarining shaffofligi resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan davlat aktivlarini boshqarish tizimini takomillashtirish institutsional islohotlar bilan uzviy bog'liqdir.

Korporativ boshqaruv nazariyasi doirasida davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Michael Jensen va William Meckling tomonidan ishlab chiqilgan agentlik nazariyasiga ko'ra, mulkdor (davlat) va menejer o'rtasidagi manfaatlar nomutanosibligi samaradorlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, mustaqil direktorlar institutini rivojlantirish hamda natijadorlik ko'rsatkichlari (KPI) tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Strategik menejment nazariyasida tashkilotning uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlash boshqaruv qarorlarining sifatiga bog'liqligi asoslanadi. Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan raqobat strategiyasi konsepsiyasi davlat ishtirokidagi korxonalarning hududiy iqtisodiyotdagi rolini samarali tashkil etishda strategik rejalashtirish va resurslarni optimal taqsimlash muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, Peter Drucker natijadorlikka asoslangan boshqaruv konsepsiyasini ilgari surib, har bir tashkilot faoliyati aniq va o'lchab bo'ladigan natijalar orqali baholanishi zarurligini ta'kidlaydi.

Davlat aktivlarini boshqarish bo'yicha xalqaro tajriba ham alohida ahamiyatga ega. OECD tomonidan ishlab chiqilgan davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish tamoyillari shaffoflik, hisobdorlik, aksiyadorlik huquqlarini himoya qilish hamda kuzatuv kengashlari mustaqilligini ta'minlash zarurligini belgilaydi. Mazkur tamoyillar davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Milliy ilmiy tadqiqotlarda ham davlat aktivlarini boshqarish, xususiylashtirish jarayonlari va transformatsiya masalalari keng o'rganilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyati doirasida davlat ulushi mavjud korxonalarni isloh qilish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda bozor mexanizmlarini keng joriy etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mintaqaviy darajada davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirishning institutsional mexanizmlarini menejment yondashuvi asosida kompleks tarzda o'rganish masalasi yanada chuqur tadqiqotni talab etadi. Mavjud ilmiy ishlarda davlat aktivlarini boshqarish samaradorligi alohida yo'nalishlar kesimida ko'rib



chiqilgan bo'lsa-da, mintaqa iqtisodiyoti sharoitida institutsional mexanizmlarni strategik menejment, korporativ boshqaruv hamda natijadorlikka asoslangan boshqaruv tizimlari bilan integratsiyalashgan holda tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot mintaqa iqtisodiyotida davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirishning institutsional mexanizmlarini menejment yondashuvi asosida o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda nazariy va empirik tadqiqot usullarining kompleks kombinatsiyasidan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyatida davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayoni 2021–2024-yillarda hudud iqtisodiyoti samaradorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xususiylashtirilgan korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari izchil ravishda yaxshilangan. Xususan, sof foyda hajmi oshgan, aktivlar rentabelligi (ROA) hamda aksiyadorlar kapitali rentabelligi (ROE) ortgan. Ushbu ko'rsatkichlar xususiylashtirish faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, xususiylashtirish jarayoni ish bilan ta'minlash darajasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususiylashtirilgan mulkdorlar faoliyati natijasida yangi ish o'rinlari yaratilgan hamda mintaqaviy mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaygan.

Xususiylashtirish investitsiyalari sezilarli darajada oshgani hududiy iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish uchun qo'shimcha impuls bergan. Xususiylashtirishning raqobatbardoshlikka ta'siri ham ijobiy baholangan bo'lib, bozor mexanizmlarining kuchayishi korxonalar faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qilgan.

**1-Jadval. Qashqadaryo viloyatida davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonining 2021-2025-yillarda mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri**

| Yo'nalish                      | 2021  | 2022   | 2023         | 2024   | 2025   | Izoh                                                                  |
|--------------------------------|-------|--------|--------------|--------|--------|-----------------------------------------------------------------------|
| Aktivlar hajmi (mlrd so'm)     | 7 820 | 8 540  | 9 220        | 10 050 | 10 900 | Xususiylashtirish natijasida aktivlar hajmi izchil oshgan             |
| Sof foyda (mlrd so'm)          | 510   | 624    | 710          | 825    | 940    | Korxonalarning rentabelligi ortgan                                    |
| ROA (%)                        | 6,5   | 7,3    | 7,8          | 8,1    | 8,5    | Aktivlar samaradorligi yaxshilangan                                   |
| ROE (%)                        | 10,8  | 11,5   | 12,6         | 13,2   | 13,8   | Aksiyadorlar daromadi oshgan                                          |
| Ish bilan ta'minlash (%)       | 82    | 84     | 87           | 89     | 91     | Xususiylashtirish ish o'rinlarini yaratishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan |
| Investitsiya hajmi (mlrd so'm) | 420   | 460    | 520          | 600    | 680    | Xususiylashtirish investitsiyalari ortgan                             |
| Raqobatbardoshlik              | O'rta | Yuqori | Yuqori       | Yuqori | Yuqori | Bozor raqobati kuchaygan                                              |
| Monitoring va shaffoflik       | O'rta | O'rta  | O'rta-Yuqori | Yuqori | Yuqori | Elektron auksionlar va KPI tizimi yordamida shaffoflik oshgan         |

Ushbu jadval Qashqadaryo viloyatida davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonining 2021-2025-yillardagi asosiy moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aks ettiradi.

**Aktivlar hajmi (mlrd so'm).** Xususiylashtirish natijasida viloyatdagi korxonalar aktivlari izchil ravishda oshgan. Bu holat davlat mulki xususiylashtirish boshqaruviga o'tishi bilan resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi.

**Sof foyda (mlrd so'm).** Sof foyda hajmining ortishi xususiylashtirish jarayonining rentabellikni sezilarli darajada oshirgani va korxonalar moliyaviy barqarorligini mustahkamlaganini tasdiqlaydi.

**ROA va ROE (%).** Aktivlar rentabelligi (ROA) hamda aksiyadorlar kapitali rentabelligi (ROE) ko'rsatkichlarining o'sishi xususiylashtirish menejmentining iqtisodiy natijadorlikni oshirishdagi muhim rolini ko'rsatadi. Bu korxonalarda resurslardan samarali foydalanish va kapitalni rentabelli boshqarish darajasi yuksalganini anglatadi.

**Ish bilan ta'minlash (%).** Jadval ma'lumotlariga ko'ra, xususiylashtirilgan korxonalarda yangi ish o'rinlari yaratilgan. Ish bilan ta'minlash darajasining ortishi mintaqaviy ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va aholi bandligini oshirishga xizmat qiladi.

**Investitsiya hajmi (mlrd so'm).** Xususiylashtirish investitsiya faolligining oshishi yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarishga imkon yaratgan.

Raqobatbardoshlik. Bozor raqobatining kuchayishi xususiylashtirish jarayonining muhim natijalaridan biri bo'lib, korxonalar mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilashga hamda samaradorlikni oshirishga xizmat qilgan.

Monitoring va shaffoflik. Elektron auksionlar va KPI tizimining joriy etilishi jarayon shaffofligini oshirgan. Bu normativ-huquqiy va institutsional mexanizmlarning samaradorligini mustahkamlash, investorlar ishonchini oshirish hamda jarayonni samarali nazorat qilish imkonini yaratgan.

Normativ-huquqiy asoslar ham tahlil qilindi. 2020-2025-yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari va qarorlar xususiylashtirish jarayonini tartibga soluvchi muhim mexanizm sifatida xizmat qilgan. Xususan, 2025-yildagi farmonga muvofiq 115 ta korxona aksiyalari, 659 ta ko'chmas mulk obyekti va 6 100 gektar yer uchastkalari xususiylashtirish dasturiga kiritilgan. Ushbu normativ-huquqiy mexanizmlar xususiylashtirish samaradorligini oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayoni mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususiylashtirish natijasida quyidagi natijalar kuzatildi:

- Korxonalarning moliyaviy samaradorligi oshdi — sof foyda hajmi ortdi, aktivlar rentabelligi (ROA) va aksiyadorlar kapitali rentabelligi (ROE) yaxshilandi.
- Ish bilan ta'minlash darajasi ko'tarildi — yangi ish o'rinlari yaratildi va hududiy bandlik ko'rsatkichlari yaxshilandi.
- Xususiylashtirish sektor investitsiyalari ko'paydi — bu hududiy iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga ijobiy hissa qo'shdi.
- Bozor raqobati kuchaydi — shaffoflik va monitoring mexanizmlari elektron auksionlar hamda KPI tizimi orqali takomillashtirildi.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy bazani yanada mustahkamlash, monitoring tizimini kengaytirish hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur yo'nalishlar xususiylashtirish jarayonining samaradorligini yanada oshirish va mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jensen M.C. & Meckling W.H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. *Journal of Financial Economics*, 3(4), 305-360.
2. Kornai J. (1980). *Economics of shortage*. North-Holland.
3. North D.C. (1990). *Institutions, institutional change and economic performance*. Cambridge University Press.
4. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2015). *OECD principles of corporate governance*. OECD Publishing.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi. (2021-2024). *Davlat korxonalarini boshqarish bo'yicha yillik hisobotlar*. Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *2020-2025 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy rivojlanish dasturi*. Toshkent.
7. Porter M.E. (1980). *Competitive strategy: Techniques for analyzing industries and competitors*. Free Press.
8. Shleifer A. & Vishny R.W. (1994). Privatization in the transition economies: An overview. *European Economic Review*, 38(2), 267-292.
9. Stiglitz J.E. (2015). *Economics of the public sector* (4th ed.). W. W. Norton & Company.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)